

**O‘ZBEKISTONDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLARNI  
BOJXONA AUDITIDAN O‘TKAZISH METODIKASINI YANADA  
TAKOMILLASHTIRISHDAGI USTUVOR VAZIFALAR**

*Raximov Siroj Shodlik o‘g‘li.*

*Bojxona institutining 4-bosqich kursanti.*

**Annotatsiya:** Mamlakatimiz iqtisodiyotini jahon xo‘jaligiga tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, boshqaruv jihatdan yaqinlashtirish, bu bevosita jahon andozalarini milliy iqtisodiyotimizga qo‘llashga olib keladi va natijada integratsiyalashuv jarayonlari tezlashadi. O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada yuksaltirish ko‘p jihatdan integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga bog‘liq. Hozirgi kunda jahon iqtisodiy maydonida raqobat muhiti kuchli shakllangan bo‘lib, bunday sharoitda har bir mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi ustuvor omil sifatida qaraladi. Iqtisodiyotning barqarorligi ko‘p jihatdan mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik tizimi holatiga bog‘liq hisoblanadi, chunki mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi – mamlakat iqtisodiyotini doimiy barqaror rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning umum milliy majmuasi bo‘lib, u albatta davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va mustaqilligini hamda tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turish mexanizmini ko‘zda tutadi.

**Kalit so‘zlar:** bojxona organlari, bojxona auditi, tashqi savdo faoliyati, iqtisod, halqaro ekspertlar

O‘zbekiston Respublikasining hozirgi kundagi dunyo iqtisodiyotidagi pozitsiyasidan kelib chiqib, shuni aytolamizki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning eng optimal yo‘li yangi tizimlarni ishlab chiqqandan ko‘ra, dunyoning iqtisodiyoti ancha rivojlangan mamlakatlari o‘z rivojlanish yo‘lida foydalangan strategik usullardan o‘z manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda milliylashtirish hisoblanadi. Bojxona tizimi mamlakatimizni jahon iqtisodiyoti bilan bog‘laydigan muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida bojxona tizimi jahon standartlariga mos ravishda implementasiya qilinishini taqozo etadi. Jahon standartlari shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdoni yengillashtirish, tadbirkorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratishning eng samarali yo‘li bojxona organlari tizimiga “vakolatli iqtisodiy operatorlar” hamda “bojxona auditi” institutlarini joriy qilishdir. Dastlab 2018-yilda vakolatli iqtisodiy operatorlar, so‘ng 2021-yilda bojxona auditi institutlari bojxona organlari tizimiga joriy qilindi. Lekin ushbu institutlarining amaldagi holati shuni ko‘rsatdiki, bu boradagi muammolar hali to‘liq yechim topmagan. Ushbu muammolarni yechimini esa yuqorida aytib o‘tgan usulimiz-ilg‘or xorijiy tajribalarni milliylashtirish orqali topamiz.

**JAHON BOJXONA TASHKILOTI TAJRIBASI**

Vakolatli iqtisodiy operatorlarni bojxona auditidan o'tkazishda xalqaro norma talablari va xalqaro tajribalarga e'tibor qaratsak eng avvalo Jahon bojxona tashkiloti tavsiya etayotgan bojxona auditini o'tkazish tartibi va metodikasini o'rganib chiqamiz.<sup>1</sup>

Jahon bojxona tashkiloti tomonidan tovarlarni chiqarib yuborilgandan keyin bojxona nazorati dolzarbligi quyidagicha izohlanadi:

Zamonaviy bojxona xizmatida bojxona chegarasidagi bojxona nazoratining o'ziga yarasha o'ri bor, ammo, bojxona nazorati davomidagi ortiqcha va ko'p vaqt talab qiluvchi tekshiruvlar samarasiz bo'lishi mumkin. Zamonaviy xalqaro savdo qat'iy belgilangan muddatlarda ishlaydi va tovarlarni muammosiz va o'z vaqtida rasmiylashtirish natijasida milliy iqtisodiy foyda olish mumkin. Bundan tashqari, xalqaro savdoning aksariyat qismi global tarmoqlar va murakkab biznes tizimlari va ta'minot zanjirlariga ega yirik korporatsiyalarni o'z ichiga oladi. Tovar va transport vositalarini erkin muomalaga chiqarish bojxona rejimiga joylashtirgan paytida taqdim etilishi kerak bo'lgan bojxona qiymatini, tovar tavsifini, tovar kelib chiqish mamlakatini va tovarga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozlarni aniqlash uchun zarur bo'ladigan hujjatlar va ma'lumotlarni bojxona organlariga birdan taqdim etishning imkoni yo'q.

Bojxona ma'muriyatlari qisqa fursat ichida tovarlarni erkin muomalaga chiqarish haqidagi qarorni qabul qilish imkoni yo'qdek ko'rinadi. Agar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi bojxona to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan normalarni buzishda gumon qilinmasa, bojxona organi tomonidan chiqariladigan qaror uchun ko'p vaqt sarflab, bojxona rasmiylashtiruvini kechiktirish maqsadga muvofiq emas. Shu sababli, bugungi kunda ko'plab davlatlar bojxona ma'muriyatlari e'tiborni chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona nazoratiga qaratadi, shu bilan birga chegarada xavfni boshqarish tizimi qo'llagan holda tanlab olish va maqsadli tekshiruvlarni saqlab qoladi.

Chiqarib yuborilgandan keyingi, xavflarni boshqarishga asoslangan yondashuvni qo'llash orqali bojxona o'z resurslarini yanada samaraliroq yo'naltira oladi va muvofiqlik darajasini yaxshilash va savdoni osonlashtirish uchun biznes hamjamiyat bilan hamkorlikda ishlaydi. Chiqarib yuborilgandan keyingi audit (PCA) jarayonini muvofiqlikni o'lchash va yaxshilash vositasi sifatida biznesning tegishli tijorat tizimlari, oldi-sotdi shartnomalari, moliyaviy va nomoliyaviy yozuvlar, jismoniy zaxiralar va boshqa aktivlarni tizimli tekshirish sifatida aniqlash mumkin.

Jahon bojxona tashkiloti tovarlarni chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona auditi (PCA) maqsadlari sifatida quyidagilarni keltiradi:

—tovarning bojxona qiymati, kelib chiqishi mamlakati va tovar tasnifi to'g'ri deklaratsiyalanganligini hamda qonuniy ravishda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari miqdori aniqlanganligini va undirilganligini tekshirish;

—muayyan bojxona nazorati ostida turgan tovarlar to‘g‘ri deklaratsiya qilinishini ta‘minlash, shu jumladan taqiqlar va cheklovlar, litsenziyalar, kvotalar va boshqalarni nazorat qilish;

—maxsus ruxsatnomalar va ruxsatnoma bilan bog‘liq shartlarga rioya etilishini ta‘minlash.

Jahon bojxona tashkiloti tomonidan tavsiya etiladigan chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona auditi (PCA) o‘tkazish turlarini ko‘rib chiqamiz:

1) Kompleks audit:

Ushbu turdagi audit tadbirkorlik faoliyati va uning bojxona qonunchiligiga rioya qilishiga ta‘sirini ko‘rib chiqadi. Nazorat muhiti va korporativ boshqaruv tizimlari yaxshi bo‘lsa, tahliliy protseduralar ko‘p qo‘llaniladi va mazmunli testlar kamayadi. Bunday audit tashqi iqtisodiy faoliyati subyektining binosida amalga oshiriladi. Tadbirkorning faoliyati, jumladan, uning ichki hisobga olish tizimlari va ularning nazorati, savdo usullari va hamkorlari haqidagi to‘liq ma‘lumotlarni vakolatli shaxsning ish joyi va (yoki) o‘z faoliyatini amalga oshiradigan hududda yoxud tovarlar joylashgan joyda auditni amalga oshirish orqali olish mumkin.

1) Yo‘naltirilgan audit:

Auditning bu turi bojxona nazoratining bir yoki bir necha sohalariga, masalan, tovarlar bojxona qiymati, ularning kelib chiqish mamlakati va boshqalarni aniqlik kiritishga qaratiladi. Resurslardan samarali foydalanish va o‘tkazilgan auditdan ko‘zlangan natija olish uchun har bir holatda qaysi audit usulini o‘tkazish zarurligini belgilovchi mezonlar zarur bo‘ladi.

2) Chiqarib yuborilgandan keyingi tranzaksiyaga asoslangan audit (TBA)

Chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona nazoratni yangi joriy etgan davlatlar bojxona ma‘muriyatlari alohida operatsiyalar bo‘yicha tekshiruvlarni joriy etishni ko‘rib chiqishi mumkin. Buni ikki yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin: 1) Agar bojxona organi xodimi rasmiylashtirish vaqtida ma‘lum bir deklaratsiyaga shubha tug‘dirsa, chegara bojxona postidan ichki bojxona postiga yo‘naltirish. 2) Bojxona auditi guruhi bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirgandan so‘ng sinchkovlik bilan tekshiradi va ularning to‘g‘riligiga shubha tug‘ilganlarni ajratib oladilar. So‘ng aniqlangan xavf darajasiga qarab tegishli choralar ko‘rilishi mumkin. Har bir holatda, qaysi bojxona deklaratsiyasi tekshirilishini aniqlash uchun xavfga asoslangan tanlov mezonlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Jahon bojxona tashkiloti chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona auditini o'tkazishda quyidagi tartibdagi dasturni tashkil qiladi:

### Jahon bojxona tashkilotining bojxona auditini o'tkazish sxemasi



Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish davomida amalga oshiriladigan harakatlar majmui bilan tanishib chiqamiz:

**1. Bojxona audit dasturlari va standartlashtirilgan auditorlik protseduralarini ishlab chiqish.**

Bojxona audit dasturlari chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona audit (PCA) ning qamov doirasiga ko'ra farq qilishi mumkin, lekin, ular quyidagi muhim elementlarni o'z ichiga olishi kerak:

**1.1 Bojxona audit qamrov doirasi (Scope of PCA):** bojxona auditidan o'tkazilish mumkin bo'lgan tadbirkorlik subyektlari — masalan. import qiluvchi, eksport qiluvchi, broker, vakolatli iqtisodiy operatorlar, ombor egalari va tashuvchi.

**1.2 Chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona audit (PCA) ni o'tkazish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar (Potential risks in the PCA coverage):** bojxona audit dasturlari chiqarib yuborilgandan keyingi bojxona audit davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'z tasdig'ini topmagan, lekin uning yuzaga kelishi uchun sharoitlar mavjud bo'lgan xavflarni hisobga olgan holda yaratilgan xavf indikatorlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Ushbu tizim bojxona auditini o'tkazish uchun subyekt tanlashda ochiqlik va xolislik prinsiplarini ta'minlab beradi.

**1.3 Bojxona audit maqsadi (objectives of PCA):** bojxona audit tizimini amalyotga joriy etishdan oldin mamlakat o'z salohiyatidan kelib chiqqan holda bojxona auditidan kutilayotgan natijalarni hisobga olgan holda maqsadlar belgilab olinadi.

**1.4 Yillik / oylik ish rejasi (Annual/Monthly working Plan):** Auditni rejalashtirish har yili resurslarning mavjudligini va tugallanmagan ishlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. Bir yilda qancha auditorlik tekshiruvi o'tkazilishini taxmin qilish uchun har bir auditoriya zonasiga standart ish soatlari belgilanishi va mavjud bo'lgan har bir auditor yoki auditorlik guruhi soatlari hisoblab chiqilishi mumkin. Rejalashtirish har oyda amalga oshirilishi mumkin. PCA dasturini amalga oshirishning har bir bosqichini samaradorlikni sarflangan vaqtga qarab o'lchash uchun vaqt bloklariga ajratish tavsiya etiladi. U auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun zarur bo'lgan auditorlar soni kabi masalalarni o'z ichiga olishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bojxona kodeksi O'RQ-400 20.01.2016
2. "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.06.2020-yildagi PF-6005-son
3. "Bojxona auditini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.02.2021- yildagi 101-son
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 24.08.2020 yildagi 500-sonli qarori
5. "O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari" ilmiy maqolalar to'plami. Istiqbolli izlanishlar va qo'shimcha ta'lim markazi. 2021-yil 2- iyun. <http://tsue.uz/uz/ilm-fan/konferensiyalar/xalqaro-respublika-vazirlik-va-universitet-miqyosidagi-ilmiy-amaliy-anjumanlar-royhati-2021/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 25.01.2020
7. "O'zbekiston Respublikasining harakatlar strategiyasi: makroiqtisodiy barqarorlik, investitsion faollik va innovatsion rivojlanish istiqbollari" xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 1-sho'ba 2020-yil 10–11- dekabr Toshkent, O'zbekiston